

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTAKA
QO‘MITASI
KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH VA STATISTIK
TADQIQOTLAR INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 31:631.1(575.1)

VALIXANOV AZIZBEK RAVSHAN O‘G‘LI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SEKTORINING
IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQOTI**

08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi**

Ilmiy rahbar:
Boltabayev Mahmudjon Rustamovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent–2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I. BOB. TURIZM SEKTORI RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	13
1.1. Turizm sohasining ijtimoiy–iqtisodiy mohiyati va uning rivojlanishi.....	13
1.2. Turizm sektorining iqtisodiy faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va ularning axborotlar bazasini shakllantirish.....	27
1.3. O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari.....	44
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	58
II. BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SEKTORINING IQTISODIY FAOLIYATINI KO‘P OMILLI STATISTIK TAHLILI.....	59
2.1. Milliy turizm sektorining iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalarini statistik usullardagi tahlili.....	59
2.2. O‘zbekiston Respublikasida turizm sektorini rivojlantirishdagi muammolar va ularni hal etish yo‘llari.....	72
2.3. Milliy turizm xizmatlari sohasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni statistik baholash.....	86
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.....	101
III. BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SEKTORI FAOLIYATINI STATISTIK HISOBGA OLISH YO‘LLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA ISTIQBOLLARI.....	102
3.1. Xorijiy davlatlarning turizm sektorini statistik tadqiq etishdagi ilg‘or tajribalari va ulardan foydalanish yo‘llari.....	102
3.2. Milliy turizm sektorining asosiy rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish va o‘rta muddatli prognozlash.....	118
3.3. O‘zbekiston Respublikasida turizm sektorining statistik hisobga olish yo‘llarini takomillashtirish.....	129
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	147
XULOSA.....	148
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	152

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida turizm sektorining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini statistik tadqiq etish xizmatlar bozorida talab-taklif dinamikasi, turistlar oqimi tarkibi, mehmondo'stlik infratuzilmasi samaradorligi va sektorning YaIMga qo'shgan hissasini baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatlarning raqobatbardoshlik darajasini prognoz qilish imkonini yaratadi. Bugungi kunda turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng istiqbolli sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)ning ma'lumotlariga ko'ra "...turizm daromadlilik darajasi bo'yicha uchinchi, tovar va xizmatlar eksportida to'rtinchi o'rinda, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o'rtacha 10,4 foizni tashkil etmoqda..."¹. Turizm statistikasi orqali valyuta tushumlari, bandlik darajasi, kichik biznes subyektlari ishtiroki va hududlar kesimida iqtisodiy faollik tendensiyalari baholanib, strategik boshqaruv qarorlari optimallashtiriladi. Xorijiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, "to'g'ri shakllantirilgan turizm statistikasi inklyuziv o'sishni rag'batlantirish va samarali resurs taqsimotini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi"². Bundan ko'rinadiki, turizm sohasining statistik tahlili global raqobatda ustunlikka erishish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy ilmiy-amaliy vositasi hisoblanadi.

Jahonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish, sifat darajasini oshirish, turizm xizmatlarini ko'rsatish hajmini oshirish hamda milliy iqtisodiyotlarga qo'shayotgan ulushini ko'paytirishga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda jahon miqyosida turizm kompaniyalari (korxona va tashkilotlari)ning samarali iqtisodiy strategiyasini ishlab chiqish, turizm xizmatlari samaradorligini oshirish uslubiyotini takomillashtirish, ularning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini yaratish, faoliyat samaradorligini statistik usullarda kompleks baholash va prognozlashga alohida e'tibor

¹ www.unwto.org rasmiy sayt ma'lumotlaridan olingan.

² UNWTO, International Recommendations for Tourism Statistics 2008, Madrid, 2010.

qaratilmoqda. Bunda turizm xizmatlarini standartlashtirish va sifatini oshirish uchun jahon andozalariga mos statistik tasnifini amalga oshirish, innovatsion strategiyalaridan maqsadli samarali foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta’minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish, to‘siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan³. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, bugungi kunda milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida respublikada turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan samarali foydalanishni zamonaviy statistik usullarda kompleks baholash, milliy turizm mahsulotlarini yaratishni ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish hamda statistik axborotlar bazasini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 15-yanvardagi PF-52-sonli “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-sonli “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi,

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli farmoni. www.lex.uz

2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217-sonli “2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotlarda turizm bozori rivojlanishining turli jabhalariga xos nazariy va uslubiy masalalar o‘rganilgan. Xususan xorijlik olimlardan Agustin Kanyada, Dvayer Larri, Forsayt Piter, Sperr Rey i Van XoTip, Enn Kristin Brandvang, Yuxa-Pekka Konttinen boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan⁴.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlarida Popkov V.P., Kol O.D., Anoxina Ye.M., Markov D.N., Zaklyazminskaya Ye.O., Morozov M.A., Morozova N.S., Karpova G.A., Xoreva L.V., Voronkova L.P., Aleksandrova A.Yu., Trifonova Z.A., Trifonova M.M. va boshqalar bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar⁵.

⁴ Agustín Cañada “Regional Tourism Satellite Account” UNWTO, Madrid 2013., Papers/34-41., Dwyer, Larry; Forsyth, Peter; Spurr, Ray; and Van Ho, Thiep, "Developing An Integrated Suite Of Regional Tourism Satellite Accounts (Tsas): A Case Study From Australia" (2016). Travel and Tourism Research Association: Advancing Tourism Research Globally. Papers/48. (<https://scholarworks.umass.edu/Papers/48>), Ann Kristin Brændvang “Regional Satellite Accounts for TourismData, Concepts, Methods and Applications”, Paper for the 41st European Congress of the E-RSA Zagreb, Aug-Sept 2001 (<http://www.sre.wu.ac.at/ersa/ersaconfs/ersa01/papers/full/195>)., Juha-Pekka Konttinen “Regional Tourism Satellite Accountin Finland — Data, Concepts, Methods and Key Results”, 46th Congress of the European Regional Science Association August 30th — September 3rd, 2006, Volos (<https://core.ac.uk/download/pdf/7051473.pdf>).

⁵ Попков В.П., Кол О.Д., Анохина Е.М. Мониторинг туристского бизнеса в крупном городе: теория и практика. – СПб.: Астерион, 2009. – С. 14-16.; Марков Д.Н. Экономическая оценка туристской деятельности на региональном уровне (на пример Хабаровский края). – Владивосток, 2013. – С. 25-30.; Заклязминская Е.О. Экономика туризма Китайской Народной Республики. – Москва, 2018. – С. 113-115., Морозов М.А., Морозова Н.С., Карпова Г.А., Хорева Л.В. Морозов М.А., Морозова Н.С., Карпова Г.А., Хорева Л.В. Экономика туризма. – Москва, 2014. – С. 19., Воронкова Л.П. История туризма и гостеприимства: учебное пособие /Л.П.Воронкова. – М.: ФАИР-ПРЕСС, 2004.– С12., Александрова А.Ю. Статистика туризма: учебник. – Москва, 2014. – С. 20,21,31,32.; Трифонова З.А., Трифонова М.М. Оценка туристского потенциала

O'zbekistonda turizm va turizm statistikasi bo'yicha iqtisodchi olimlardan B.K.G'oyibnazarov, Yo.Abdullayev, N.M.Soatov, A.Qoraboyev, X.A.Shadiyev, A.A.Nabixo'jayev, A.Abduvohidov, N.M.Abdusalomova, M.T.Aliyeva, T.Tashmurotov, A.Saidov, E.Umarkulov, A.M.Abdullayev, O.X.Abduraxmanov, N.K. Zokirova va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar⁶.

Mazkur tadqiqotlarda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni statistik baholash, istiqbollarini prognozlash, statistik ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish, tur mahsulotni differentsiatsiyalash va diversifikatsiyalash, jahon turizm xizmatlari bozoriga milliy turmahsulotlarni yetkazishning strategiyalarini yaratish kabi masalalar yetarli darajada o'rganilmagan. Yuqoridagi muammolarni hal qilish zarurati mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashga asos sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda turizm sektorining iqtisodiy faoliyatini statistik baholash va istiqbollarini prognozlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

территории Чувашской Республики. – Чувашский государственный университет имени И.Н.Ульянова, Россия, 19.01.2009 г., УДК 338.48. – С 40.

⁶ G'oyibnazarov B.K. O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblar tizimini ishlab chiqishning ilmiy – metodologik asoslari (statistik aspekt). – Toshkent, 2006. – 100-102 b., Abdullayev Yo. Statistika nazariyasi. Darslik. – T.: "O'qituvchi", 2002. – 520 b., Soatov N.M. Statistika Darslik. – T.: Abu Ali Ibn Sino. Darslik. 2003. – 652 b., Koraboyev A., Rashitova N., G'oyibnazarov B.K. Milliy hisoblar tizimi: darslik. B.- T.: Iqtisod-moliya, 2015. – 371 b., Nabixo'jayev A.A. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (xalqaro taqqoslash muammolari). // Iqtisod va hisobot, 1995, №3, 7-b., Abduvohidov A., Turizm iqtisodi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. 2007. – 175 b., Abdusalomova N.M. Xalqaro turizm marketing jarayonining rivojlanishi ("O'zbekturizm" MK misolida). Kand.diss. – T.: TDIU, 2001. – 150 b., Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatidari. Doktorlik dissertatsiyasi – T., 2019. – 250 b., Tashmurotov T., Saidov A., Umarkulov E. Turizm iqtisodi. – T.: TMI, 2000. – 125 b., Абдуллаев А.М., Абдурахманов О.Х., Зокирова Н.К. Прогнозирование и моделирование национальной экономики. – Т.: Фан ва технология, 2007. – 575 с.

globallashtirish sharoitida turizm sektorini statistik tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish hamda turizm sohasini milliy iqtisodiyotdagi tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash;

tarmoq korxonalarini mahsulotining jahon bozoridagi xaridorgirlik darajasini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mezonlar, tamoyillar hamda ko'rsatkichlar tizimini statistik baholash;

turizm sohasi faoliyatini baholovchi statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va axborotlar bazasini kengaytirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

turizm sohasini iqtisodiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ta'sirini kompleks statistik usullarda baholash;

turizm korxonalarining zamonaviy statistik usullarda tahlil qilish hamda ular asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqish;

O'zbekiston turizm infratuzilmasi hamda turistlar oqimining iqtisodiy o'sishini jadallashtiruvchi ta'sirini baholash asosida uzoq muddatli statistik prognozini amalga oshirishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston turizm sektoriga qarashli korxonalar va firmalarning iqtisodiy faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti turizm sektorini statistik baholash va samaradorligini oshirish yuzasidan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar va tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlash jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy va ekspert tahlil, empirik baholash, SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik, ko'p omilli statistik tahlil va prognozlash kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

milliy turizm sohasi iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida hududiy turizm klasterlari raqobatbardoshligini baholash va prognoz qilish funksiyalariga

ega bo'lgan "Milliy turizm iqtisodiyoti va raqobatbardoshlik markazi" faoliyatini tashkil etish taklifi asoslangan;

turizm sektori faoliyatini baholovchi axborotlar bazasini yoppasiga va qisman kuzatish usullari yordamida elektron chipta tizimi, mehmonxona axborot bazalari, transport monitoringi va onlayn so'rovnomalar o'rtasida maqbul mutanosiblikni ta'minlash orqali milliy turizm xizmatlarini statistik hisobga olish qamrovini (MSA = 15 % – 18 %) oshirish imkoni asoslangan;

Davlat statistika tizimida turizm sohasi ma'lumotlarini yagona standartlar asosida yig'ish va tahlil qilishni ta'minlovchi "Turizm statistikasi va bozor tahlili xizmati"ni joriy etish orqali institusional va axborot-tahliliy mexanizmini takomillashtirish taklifi ilmiy asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida turizm sektori faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va dinamikasiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida 2030-yilga qadar o'rta muddatli prognoz variantlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon bozorida turizm sektorining raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan nazariy-metodologik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

turizm sektori iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholash bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

tarmoq korxonalari mahsulotining jahon bozoridagi xaridorgirlik darajasini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mezonlar, tamoyillar hamda ko'rsatkichlar tizimi statistik baholangan;

turizm sohasini milliy iqtisodiyotning strategik sektori sifatida rivojlantirishda ushbu faoliyatni nazorat qiluvchi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichida aks etishi bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi hamda Turizmni rivojlantirish qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolati davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertasiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik asoslar jahon xo'jaligining globallasuvi sharoitida respublikamizda turizm sektorining samarali faoliyat olib borishiga, milliy turizm mahsulotining jahon bozorida raqobatbardoshligini statistik baholashda, shuningdek, ulardan O'zbekiston Respublikasida turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi muassasalar o'z faoliyatini hisob-kitoblarini takomillashtirishga doir amaliy tadbirlarni ishlab chiqishda, qisqa va uzoq muddatlarga mo'ljallangan iqtisodiy rivojlanish strategiyalari va dasturlarini tuzishda keng foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada turizm sektorini samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, shuningdek, iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida "Tarmoqlar statistikasi", "Statistika asoslari", "Turizm infratuzilmasi", "Turizmni rejalashtirish" kabi fanlardan o'quv dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalarni tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizm sektorining hisob va statistika tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

milliy turizm sohasi iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida hududiy turizm klasterlari raqobatbardoshligini baholash va prognoz qilish funksiyalariga ega bo'lgan "Milliy turizm iqtisodiyoti va raqobatbardoshlik markazi" faoliyatini

tashkil etish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan amaliy faoliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 24-fevraldagi 03-10-17-1696-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmi infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan yo‘l xaritasiga kiritilgan turizm sektorini kengaytirilgan holda qiyosiy baholash va kompleks tahlil qilish imkoni yaratilgan;

turizm sektori faoliyatini baholovchi axborotlar bazasini yoppasiga va qisman kuzatish usullari yordamida elektron chipta tizimi, mehmonxona axborot bazalari, transport monitoringi va onlayn so‘rovnomalar o‘rtasida maqbul mutanosiblikni ta’minlash orqali milliy turizm xizmatlarini statistik hisobga olish qamrovini (MSA=15 % – 18 %) oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan amaliy faoliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 24-fevraldagi 03-10-17-1696-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmi infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni ilovasidagi mamlakatimiz turizm sektorining iqtisodiy faoliyatini zamonaviy iqtisodiy usullarda baholash imkonini oshirishda foydalanilgan;

Davlat statistika tizimida turizm sohasi ma’lumotlarini yagona standartlar asosida yig‘ish va tahlil qilishni ta’minlovchi “Turizm statistikasi va bozor tahlili xizmati”ni joriy etish orqali institusional va axborot-tahliliy mexanizmini

takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan amaliy faoliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 24-fevraldagi 03-10-17-1696-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklif amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentyabrdagi 588-sonli “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga kiritish orqali turizmni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston Respublikasida turizm sektori faoliyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish asosida 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan o‘rta muddatli prognoz variantlari bo‘yicha ilmiy taklif O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan amaliy faoliyatga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 24-fevraldagi 03-10-17-1696-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmi infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-102-son farmoni asosida milliy turizm sektori faoliyatining istiqbolli yo‘nalishlarini baholash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur ish natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 9 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 147 betni tashkil etadi.